



O'QUVCHI YOSHLARNING AXBOROT KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH MASALASI

Komilov Murodjon Baxodirovich

*Paxtaobod Abu Ali Ibn Sino jamoat salomatligi texnikumi axborot
texnologiyalari fani o'qituvchisi.*

Saidova Zilolaxon Xabibullayevna

*Andijon shahar 3-son politexnikumi o'quv ishlari bo'yicha direktor
o'rinbosari.*

Annotatsiya: *Ta'lim tizimida pedagogik faoliyatning ijtimoiy shartlari doimiy o'zgarib turadigan sharoitda ushbu vazifani amalga oshirishning muhim omillaridan biri bu axborot kommunikatsion-texnologiyalari vositalaridan foydalanishdir. Maqolada o'quvchi yoshlarning axborot kompetentligini shakllantirish masalasi yoritildi.*

Kalit so'zlar: *axborot kommunikatsion-texnologiyalar, kompyuter, telekommunikatsion texnologiyalar, o'quvchilar, axborot kompetentlik, axborot madaniyati.*

Аннотация: *В условиях постоянно меняющихся социальных условий педагогической деятельности в системе образования одним из важных факторов реализации этой задачи является использование средств информационно-коммуникационных технологий. В статье рассматривается проблема формирования информационной компетентности учащейся молодежи.*

Ключевые слова: *информационно-коммуникационные технологии, компьютер, телекоммуникационные технологии, студенты, информационная компетентность, информационная культура.*



Abstract: *In the context of constantly changing social conditions of pedagogical activity in the education system, one of the important factors in implementing this task is the use of information and communication technologies. The article discusses the issue of forming information competence of students.*

Keywords: *information and communication technologies, computer, telecommunication technologies, students, information competence, information culture.*

KIRISH

Respublikamizda kompyuter va axborot texnologiyalari, telekommunikatsiya va ma'lumot uzatish tarmoqlari, internet xizmatlarini rivojlantirish, ularni dunyo standartlariga yetkazish va shu asosida axborotlashgan jamiyat sari jadal intilish maqsadida keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ana shunga asosan, bugungi kunda jamiyatni axborotlashtirishning asosiy yo'nalishlaridan biri jamiyatimizda yashayotgan, bilim olayotgan yoki ma'lum bir sohada faoliyat ko'rsatayotgan barcha insonlarni axborot madaniyatini shakllantirishdan iboratdir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Hozirgi kunda jamiyatni axborotlashtirishning asosiy yo'nalishlaridan biri, insonlarni, shu jumladan, ta'lim olayotgan o'quvchi yoshlarning axborot kompetentligini shakllantirishdan iboratdir.

Axborotlashgan jamiyatga o'tishning boshlang'ich bosqichida hosil bo'ladigan va qayta ishlanayotgan axborotlar hajmi kun sayin ortib hamda zamonaviy kompyuter va telekommunikatsion texnologiyalari vositalari tez suratlar biln mukammallashib va takomillashib bordi. Bunday sharoitda ta'lim tizimini, shu jumladan, o'quvchilarni keraakli axborot manbalari bilan ta'minlash, ularni to'plash, saqlash va qayta



ishlash usullari bo'yicha kerakli bilim va malakalarni, ya'ni axborot kompetentligini shakllantirish muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Ta'lim tizimida pedagogik faoliyatning ijtimoiy shartlari doimiy o'zgarib turadigan sharoitda ushbu vazifani amalga oshirishning muhim omillaridan biri bu axborot kommunikatsion-texnologiyalari vositalaridan foydalanishdir. Shuning uchun har bir o'quvchini butun tarbiya faoliyati davomida uzluksiz ta'limga va o'z ustida mustaqil ishlashga bo'lgan talabni va tayyorgarligini shakllantirish muhim hisoblanadi. Har bir o'quvchi ta'lim olayotgan o'z sohasida axborotlar oqimini muhimligi va zarurligini bilishi, mustaqil axborotlarni ishlashi, turli manbalardan, shu jumladan, Internet tarmog'idan ma'lumotlarni olishi, ularni tushunadigan tarzda ifodalashi hamda dars jarayonida samarali foydalanishi lozim.

Buning uchun har bir o'quvchi nafaqat muhim axborot, bilim, malakalarga ega bo'lishi, balki madaniyatning asosiy turi-shahsning axborot kompetentligini shakllantirgan holda dars jarayonida faol ishtirok qilishni bilish kerak.

O'quvchilarning axborot kompetentligi uning axborotlashgan dunyo qarashi, ham an'anaviy, ham yangi texnologiyalari bilan axborot talabini optimal qanoatlantirish bo'yicha mustaqil ish faoliyatini ta'minlovchi bilim va malakalarining tizimi bilan harakterlanadi. U o'quvchi faoliyatining muhim va asosiy tomonlarini yoritadi, ya'ni uning axborot madaniyatini shakllantirish, ularda doimiy ravishda bilimga bo'lgan qiziqish va intilishni uyg'otish, axborotlarni izlash, saqlash, saralash hamda ma'lumotlar ustida ishlash, ularni baxolash ko'nikmalarini to'g'ri shakllantirish.

O'quvchilarning axborot kompetentligini shakllantirish jarayonining muxim qiyinchiliklaridan biri shundaki, ko'pchilik o'quvchilar axborot bilan ishlash bo'yicha kerakli malakaga ega emas, kerakli so'rovlarni talab darajasida bayon eta olishmaydi. Amaliy mashg'lotlarga oid



hisobotlarni,matnli xujjatlarni va xakazolarni tuzishda va tayyorlashda qiyinchiliklarga duch kelishadi.

Ta'lim tizimida zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalaridan foydalanib o'quvchilarning axborot kompetentligini shakllantirishda asosiy e'tiborni quyidagi mavzularni o'zlashtirishga qaratish muhim hisoblanadi:

1. Axborot resurslari va jamiyatning axborot madaniyati;
2. Axborot izlash masalalari va uni yechish algoritmlari;
3. Internet tarmog'idan ma'lumotlarni izlash qayta ishlashda foydalanish;
4. Elektron pochta bilan ishlash asoslari;
5. Ta'lim tizimida yangi axborot texnologiyalari;
6. O'quvchilarning o'quv faoliyati natijalarini tayyorlash va ifodalash texnologiyalari;

Zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalaridan foydalanib ta'lim tizimida o'quvchilarning axborot kompetentligini shakllantirish samaradorligini oshirishning asosiy vositalari sifatida o'quv va amaliy dasturlari, mutimediali texnologiyalari, elektron o'quv adabiyotlari, masofadan o'qitish tizimi, Internet tarmo'g'i hamda amaliy dasturlar paketlari keng qo'llanilmoqda.

XULOSA

Axborot va kompyuter texnologiyalaridan foydalanib o'quvchilarning axborot kompetentligini shakllantirish jarayonini tashkil etishda zamonaviy matn muharriri - Word dasturi, ma'lumotlarni ko'rgazmali shaklda namoyon qilish dasturi-Power Point, ma'lumotlarni jadval ko'rinishida ifodalash va qayta ishlash dasturi-Excel, ma'lumotlarni to'plash,saqlash,qayta ishlash va tartiblash uchun - Access dasturi, turli xil ma'lumotlarni izlab topib va elektron pochtdan foydalanish Internet tarmog'i dasturlarini o'rganish va ularni amaliy hayotga tadbiq etish, tinglovchini axborot texnologiyalari bo'yicha bilim va



ko‘nikmalarini oshirishda o‘z samarasini bermoqda. Ana shuning uchun ham bugungi kunda barcha maktablar o‘z veb saytlarini yaratib, maktabda amalga oshirilayotgan ishlar, o‘tkazilayotgan ma‘naviy marifiy tadbirlar, o‘qituvchilar tomonidan yaratilayotgan darsliklar mazkur veb saytlarga joylashtirib borilyapti. Bu ham o‘quvchilarning axborot kompetentligini shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.S.K.Ro‘zimov. Kompyuter savodxonligi. “Toshkent. Fan” 2006-yil.
- 2.M.Aripov va boshqalar. Axborot texnologiyalari. “Toshkent. Noshir”. 2009-yil .
- 3.M.Aripov va boshqalar. Informatika. Informatsion texnologiyalar. Toshkent. 2001-yil.
- 4.A. Abduqodirov, B. Boltayev va boshqalar. Informatika va hisoblash texnikasi asoslari. UO‘T maktablarining 8-sinfi uchun darslik. “Toshkent. O‘qituvchi” 2006-yil .